

# DAVRA SUHBATI LOLAXON MUROTOVANING HAYOTI VA ISH FAOLIYATIGA BAG'ISHLANDI



Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Qo'shtepa tumani bo'linmasi hamda axborot-kutubxona markazi bilan hamkorlikda kitobxonlar o'ttasida O'zbekiston Qahramoni Lolaxon Murotovaning hayoti va ish faoliyatiga bag'ishlab "Vatanga baxshida umr" deb nomlangan davra suhbati bo'lib o'tdi.

Davra suhbatini Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Qo'shtepa tumani bo'linmasi rahbari Nodirbek Otobekov olib bordi.

Tadbir davomida Nodirbek Otobekov ishtirokchilarga Farg'ona ayolining zahmatkash mehnati, el-yurt ravnaqi yo'lida qo'shayotgan xizmatlari haqida gapirib berdi. Shuningdek, axborot-kutubxona xodimi Mahbubaxon Xoshimova O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan paxtakor Lolaxon Murotovaning hayoti va kasbi borasida erishgan yutuqlari haqidagi o'z ma'ruzasini o'qib eshittirdi.

Tadbir ishtirokchilari o'z tanlagan kasbiga mehr qo'yib, yurtiga sadoqat bilan xizmat qilgan O'zbekiston Qahramoni Lolaxon Murotovaning hayoti va ish faoliyati haqidagi ma'lumotlarga ega bo'ldilar.

## **Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.**

**Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**

[Facebook](#),

2021-02-25 08:47:16